



## PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ROMANIGA XOS EPIKLICK VA TARIXIY SHAXS TALQINI

Jadgarova Farida Baxtiyorovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute, Turkiy tillar fakulteti, O'zga tilli guruharda o'zbek tili 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7593335>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2023

Online: 31<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Yulduzli tunlar, Bobur, Boburnoma, memor, roman, shoh va shoir.*

### ABSTRACT

*Biz bu maqolada o'zbek adabiyotiga juda katta hissa qo'shgan o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" tarixiy romani bo'yicha yozamiz. Bu asardagi har bir qahramonning obrazlari har taraflama juda yaxshi yoritib berilgan.*

Bu asar Boburning hayot yo'llariga bag'ishlangan asar. "Yulduzli tunlar" romanining yozilishiga "Boburnoma" va "Humoyunnoma" asarlari asos bo'lgan. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" asari ustida o'n yilan ziyod ishlagan. Bu asarni birinchi marta 1972-yilda nashrqa topshirgan. Lekin bu asar olti oy tazyiq ostida qolganligi sababli yozib tugatilgandan keyin ham chiqartirilmagan.

Zahriddin Muhammad Bobur Temuriylar sulolasini shunday og`ir vaziyatdan yaxshi o'tib ketadi. Mamalakatdan -mamlakatga olib o'tgan va bu sulolani Hind zaminida uch yuz yildan ziyod yashagani bizda katta iftixon tuyg`usini uyg`otgan. Bu asarda Temuriylar sulolasining taxt uchun o'z o'z og'a - inilarini ham ayamasdan qilich ko'targani va shu taxt chun kurash natijasida Temuriylar sulolasi parcha-parcha bo'lib ketgani Movaraunnahrdek katta shaharning ham yo'q bo'lib ketgan fojaviy qismati ko'rsatib berilgan. "Yulduzli tunlar" romanining davomi "Avlodlar dovonii" asarini yozgan. Bu asarni juda ko'p tillarga tarjima qilishgan

Bobur 12 yoshligida taxtga o'tirishga majbur bo'ladi. Chunki uning otasi erta vafot etadi. Bobur Samarcandni bosib olishga harakat qilib boshladi. Samarcandni bir necha marotaba qo`lga kiritishga harakat qilib boshladi va Samarcandi egallab oldi. Uning eng katta orzularidan biri bobokaloni Amir Temur barpo etgan davlatni qayta tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo`ydi.

Bu asar faqat Bobur hayotiga bag'ishlangan emas balki oddiy xalqning shunchalik qynalgan holatlari ham ochiq oydin yoritib berilgan. Bu asarning boshlanish qismini oladigan bo'lsak dehqon farzandi Toxir va Robiyaning sevgisi bilan boshlanadi. Umarshayx vafot etadi keyin toj-taxt tashvishlari hammasi yosh Boburning boshiga tushadi. Boburni tinimsiz o`ylashga izlanishga majbur qiladi. Asar dvomida biz Xonzodabegimning ko`rsatgan qahramonliklari ko'rishimiz mumkin. Bobur kasal bo'lib yotgan paytida Andijonga yov bostirib keladi shu payti Xonzodabegim erkakcha kiyinib hamma askarlarga bosh bo'lib jangga chiqadi. Xonzodabegim Bobur va oila a'zolari uchun o'z orzu umidlardan baxtidan



vos kechib o'z yaqinlarini qutqaradi va o'zi yovuz Shayboniyxonga turmushga chiqadi. Shunday qahramonliklar juda ham ko'p Xonzodabegim o'g'lining qahramonligi eng katta qahramonliklarning birisi shu chunki u o'n yosh bo'lsa ham tog`asiga yordamga boradi va shu yerda jangda o`q tegib yaralanadi. Bobur o'zi orzu qilgan bobosi Amir Temur asos solgan davlatni egallab olib bilmaydi lekin Hindistonda sokin tarzli davlat tuzishga muofaq bo`ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur barpo etgan davlat ko'p mintaqlarga yoylib ketmagan bo`lsa ham o`zi barpo qilgan davlatni juda yaxshi boshqargan va davlatni juda ham oqilona boshqargan. Boburiylar sulolasiga 332 yil davomida boshqarilgan.

Pirimqul Qodirov bu asarning eng oxirini ham juda tasirli qilib tugatgan. Asarning oxirida Humoyun Mirzo "qora bezgak" kasaliga chalinadi va buning davosini umuman topishmaydi. Shunda Boburning yoniga Shayxulislom kelib, parvardigor g`oyibdan shifo yuborishini g`am chekmasligini aytadi. Tabiblardan ish chiqmagach olloh yo`liga sadaqa bering shunda yaxshi bo`lib ketadi deb aytadi.

Shayxulislom bu sadaqada Ko`hinurni nazarda tutgan edi eng qimmatbaho narsa sadaqa qilishimiz kerak, Ko`hinurni Murtazo Ali mozoriga sadaqa qiling deb Boburga maslahat beradi. Chunki bu olmos dunyodagi eng qimmatba olimos edi hamda bu olmosni Humoyunning o`zi topib olgan edi. Boburning ko`ziga mol - u dunyo emas balki uning ko`z oldida faqat o'g'lining hayoti turgan edi. Bobur ruhoniylar, podshohlardan ham baland turishga, iloj topsa boshlariga og`ir kun tushganidan foydalaniib, o`z hukmlarini o`tkazishga intilishlarini juda yaxshi bilar edi. Shuning uchun Bobur Ko`xinur olmosining o`rniga o`zining jonini Alloh yo`liga sadaqa qilishni so`rab duo qiladi. Boburning ahvoli kundan – kunga og`irlashib Humoyun tuzala boshlaydi. Bobur Humoyunning dardini o`ziga olib shu kasallikdan 47 yoshda vafot etadi.

### References:

1. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romani Toshkent "Adabiyot uchqunlari" 2018
2. 11-sinf adabiyoti 1-qism
3. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com.kutubxonasi)